



OLIV TA'LIMDA RUS TILINI O'QITISH JARAYONIDA INNOVATSION METODLARNING O'RNI

Axmedova Madinabonu Maxmudjonovna

Rus Tili Kafedrası Katta O'qituvchisi
Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10159128>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-November 2023 yil
Ma'qullandi: 15- November 2023 yil
Nashr qilindi: 20-November 2023 yil

KEY WORDS

talaba, o'qituvchi, jarayon, metod, sifat, pedagog, loyiha, zamonaviy talim, innovatsion texnologiyalar.

ABSTRACT

Mazkur maqolada innovatsion metodlar va texnologiyalar xususida fikr yuritiladi. Shuningdek, bugungi kundagi talim jarayonida, xususan ona tilini yoki rus tilini yoki boshqa modullarni yoki xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha turli qo'llanilayotgan innovatsion pedagogik texnologiyalar mazmuni haqida ham mulohazalar bayon etilgan.

Mamlakatimiz ta'lim tizimida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning zahirida oliy ta'lim tizimini mazmunan yangilash, axborotlar globallashtgan bir davrda mazkur ta'lim tizimida pedagogik faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilarning ta'limtarbiya jarayonini tashkil etishni modernizatsiyalash, mazkur jarayonga innovatsion texnologiyalarni tadbiiq etish, bu borada xorij tajribalaridan samarali foydalanish kabi muhim vazifalarni qamrab olgan.

Mazkur vazifalarni amalga oshirishda bugungi kun pedagogi zimmasiga ta'lim-tarbiya mazmuniga bog'liq innovatsion ta'lim texnologiyalarini tanlash, mashg'ulotlar ishlanmalari va texnologik xaritalarni loyihalash, ularda belgilangan o'quv maqsadlarini amalda qo'llay olish, talabalarning yosh, psixologik va ergonomic xususiyatlariga asosan talaba shaxsiga yo'naltirilgan ta'limni tashkil eta olish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ma'lumki, har qanday o'quv mashg'ulotini loyihalashtirishda o'quv maqsadi kata ahamiyatga egadir.

Binobarin, maqsadni belgilash – texnologiyalashtirishning asosiy omili hisoblanib, pedagogik texnologiyani loyihalashtirish, o'quv jarayonini tuzish hamda tashkillashtirish shundan boshlanadi. Ma'limku, maqsad – bu ko'zlanayotgan natija model ko'rinishidagi muhim yo'nalishning mahsuli hisoblanib, ta'lim subektlarining faoliyat yakunida egallashlari ko'zlanayotgan narsadir. Natija esa o'z navbatida, birinchidan, o'quv faoliyatidan olingan natija ta'lim oluvchining rivojlanishida oldingi siljish bo'lib, bu uning u yoki bu faoliyatida o'z aksini topadi. Ikkinchidan esa ta'lim jarayonining samarali borishini namoyon qilib, maqsadga erishilganlik darajasini xususiyatlaydi, ta'lim berish va ta'lim olish jarayoni natija maqsadga mos kelgandagina tugaydi. Demak, o'quv maqsadlarini belgilashda uning oldindan rejalashtirilgan natijalarga to'la ravishda mos kelishi muhim ahamiyatga egadir.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida, ayniqsa, rus tillarni o'qitishda mavjud muammolarni izchil tahlil qilarkanmiz, beixtiyor quyidagi haqli savollar o'rtaga tashlanishini ko'ramiz: nima uchun ta'lim jarayoniga tadbiiq etilayotgan pedagogik texnologiyalar to'laqonli natija

bermayapti? Rus tilida o'qish, yozish, gapirish, tinglash kabi kompetensiyalarini shakllatirishda yuzaga kelayotgan murakkabliklarning yechimi qanday? Talaba yodlagan grammatik qoidalarni, so'zlarni, birikmalarni og'zaki nutqda qo'llashdagi passivlik darajasini aktivlikka o'zgartirish uchun nima qilish kerak? Talaba xorijiy tilda olib boriladigan muloqot jarayonida "javob beruvchi" pozitsiyasidan "savol beruvchi" pozitsiyasiga olib chiqishga qaratilgan texnologiyalar mavjudmi? Albatta mazkur muammolarning yuzaga kelishi muayyan sabablarga asoslanadi.

Shularda biri – pedagog tomonidan pedagogik va ta'lim texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tadbiq etishdagi izchillikka muntazam ravishda amal qilinmasligi, shuningdek, ta'lim berishning asosiy komponentlari (ta'lim shakli, vosita va usullari)dan foydalanishda uzviylik va uzluksizlikka ro'ya etilmasligi hamda ta'lim texnologiyalarini qo'llashdagi tizimlilikka etibor qilinmasligi va boshqa shu kabi sabablar – o'quv maqsadlarini to'g'ri belgilash naqadar muhim ekanligini yana bir bor isbotlaydi.

Bu borada talabalarning nazariy bilimlarini amaliy ko'nikmalar bilan baravar rivojlantirib borishda bevosita "Blum toksionomiyasi" ni ahamiyatini va rolini alohida ta'kidlagan bo'lardik. Zero, xorijiy tillar yoki xorijiytlar uchun o'zbek tili bo'yicha o'quv mashg'ulotlarining mazmunidan kelib chiqqan holda Blum toksionomiyasiga asosan o'quv maqsadlarini aniqlash va shu asosda mashg'ulotlarni tashkil etish – talabalarning mavzu maqsadidan kelib chiqib, rejalashtirilgan natijaga to'laqonli erishishlarini samarali ta'minlaydi, desak xato qilmagan bo'lamiz. Chunki, o'quv maqsadlarini mashg'ulotning didaktik maqsadlariga muvofiq belgilanishi ta'lim samaradorligini aniqlash va mavjud kamchiliklarga barham berilishiga zamin tayyorlaydi. 1956 yili amerikalik o'quv-psixolog Benjamin Samuel Bloom tomonidan ishlab chiqilgan mazkur toksionomiyada Bloom fikrlash qobiliyatlarini tanqidiy fikrlash va mulohaza yuritish miqdoriga qarab tasniflashning yo'lini yaratdi.

Ushbu toksionomiya o'z ichiga bilish, tushunish, amaliyotga qo'llash, tahlil qilish, sintezlash, baholash kabilarni o'z ichiga oladi. Aynan Blum toksionomiyasini qo'llagan holda o'qitishda erishili mumkin bo'lgan yutuqlarni ikkiga bo'lish mumkin:

birinchisi – o'quv maqsadlarini aniq va natijaga qaratilgan holda belgilanishi;

ikkinchisi – talabalarda yegallaniladigan nazariy bilimlar bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirish hamda rivojlantirishga erishish.

Blum toksionomiyasini qo'llashda pedagog tomonidan quyidagi omillarga rioya qilinishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

❑ o'quv maqsadlarini belgilashda mavzuning mazmunidan kelib chiqish;

❑ Blumning har bir bosqishidagi jarayonlarni samarali tashkil yetishda muayyan ta'lim usullaridan izchil va tizimli foydalanish;

❑ Blum toksionomiyasining har bir bosqichiga erishishni ta'minlashga qaratilgan omillarni hisobga olish. Albatta, mavzu bo'yicha bilimlarni talabalar tomonidan o'zlashtirilganligini obektiv va haqqoniy aniqlash va baholash maqsadida muayyan topshiriqlardan foydalanish talab etiladi. Bu yo'lda Blum toksionomiyasi bo'yicha bilishga oid o'quv maqsadiga erishilganlik darajasini nazorat qilish va baholash nostandart test topshiriqlaridan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Talabalarning Blum toksionomiyasi bo'yicha o'quv maqsadiga erishilganligini nazorat qilishda ular tomonidan muayyan mavzu bo'yicha ma'lumot va axborotlarni o'zlashtirganlik

darajasini aniqlash muhimdir. Buning uchun talaba mavzu bo'yicha obektlarni aniqlashi, ularga ta'rif berishi, ma'lumotlarni qayta ishlashlari, o'z fikrini bayon etishi, muayyan jarayon, obekt va voqeaning o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatishi kerak bo'ladi. Ushbu fikrlarni standart o'quv va test topshiriqlari bilan amalga oshirib bo'lmaydi, bilish o'quv maqsadiga erishilganlik darajasini aniqlashda rasmi va ko'p javobli nostandart testlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Quyida bu borada shaxsiy tajribalarimizni tavsiya etamiz:

1) Bilish. Bu bosqichda asosiy o'quv maqsadi – talabalar tomonidan axborotni o'zlashtirishga qaratiladi. Bunda talaba mavzuni aniqlashi, uni ta'riflayshi, qayta ishlashi, mazmunini gapirib berishi, mohiyatini tushuntirib berishi av ajratib ko'rsatib berishi talab etiladi. Test topshiriqlari, og'zaki javob, klaster tuzish – preproduktiv, produktiv, qisman izlanishli, kreativ darajani ta'minlashda muhim hisoblanadi.

2) Tushunish. Bu bosqichda asosiy o'quv maqsadi mavzuning ahamiyatini anglash, asosiy g'oyani ajratib ko'rsatishga qaratiladi. Bunda talaba umumlashtirish, qayta ishlash, asosiy g'oyani qayta ishlash, u bo'yicha mustaqil misollarni keltirishi, o'z fikrini himoya qilishi talab etiladi. Klaster tuzish, Venn diagrammasi, xorijiy tildan ona tiliga tarjima yoki ona tilidan xorijiy tiliga tarjima qilish – produktiv, qisman izlanishli hamda kreativ darajani ta'minlashga xizmat qiladi.

3) Amaliyotga qo'llash. Bu bosqichda asosiy o'quv maqsad axborotni yangi kutilmagan vaziyatda qo'llashga qaratiladi. Bunda talaba mavzu mazmunini moslashtirishi, qayta ishlashi, loyihalash, modellashtirish, qayta aytib berish jarayonlarida qatnashadi. Klaster tuzish, aqliy hujum, og'zaki javob, Chizmalı organayzerlar, Pinboard texnikasi, Insert usuli reproduktiv, produktiv, qisman izlanishli, kreativ darajani ta'minlashga xizmat qiladi.

4) Tahlil. Mazkur bosqichda o'quv maqsadi axborotni yoki obektni qismlarga ajratishga qaratilishi lozim. Bunda talaba mavzu asosidagi ma'lumotlarni taqqoslash, ularni qismlarga ajratish, muayyan tularini alohida ajratish, shuningdek, qiyoslash kabi vazifalarni bajarishi lozim. Venn diagrammasi, FSMU, "T" jadvali, "Toifalash" jadvali, qisman izlanishli, kreativ darajani ta'minlashga xizmat qiladi.

5) Sintez. Bu bosqichda asosiy o'quv maqsadi goy'alarni mujassamlashtirishdan iborat bo'ladi. Bu esa talabadan mavzu bo'yicha axborotni guruhlariga ajratib berish, ularni umumlashirish, qayta ishlab berish (rekonstruksiya) vazifasi talab etiladi. Bunda qisman izlanishli, kreativ darajani ta'minlashda Klaster, Chizmalı organayzerlar ("Nima uchun", "Baliq skeleti", "Konseptual jadval" va boshqalar) qisman izlanishli, kreativ darajani ta'minlashda o'zining samarasini beradi.

6) Xulosalash. Bu bosqichda asosiy o'quv maqsadi o'rganilgan mavzu bo'yicha xulosa yasashga qaratiladi. Bunda talaba mavzu mazmunini baholashi, u bo'yicha tanqidiy fikr yuritishi, fikrga qarshi fikr bildirishi, muayyan fikrlarni qo'llab quvvatlay olishi, zarur holda ularni inkor qila olishi talab etiladi. Mazkur kreativ darajani ta'minlashda asosan og'zaki javob muhim ahamiyatga egadir.

Ta'lim jarayonida Blum toksionomiyasiga binoan o'quv maqsadlarining aniqlanishi, talabalarning o'quv maqsadlariga erishish darajasini nazorat qilish va baholashda nostandart test topshiriqlaridan foydalanish nafaqat nazoratning haqqoniyligini, balki uning keng qamrovligini ham ta'minlaydi.

Adabiyotlar:

1. Karimova, B. (2023). THEORETICAL BASIS OF FORMATION OF PERSON'S CREATIVE QUALITIES. *Science and innovation*, 2(B3), 182-189.
2. Karimova, B. E., & Abdusamadov, A. A. (2022). TABIATGA MUVOFIQLASHTIRILGAN PEDAGOGIK KREATIVLIK. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, (Special Issue 2), 319-322.
3. Ergashevna, K. B. (2022). Professional development of future teachers based on creative pedagogy.
4. Barno, K., & Qizi, N. Z. M. (2022). TALABALARDA SHAXSLARARO MUNOSABAT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNINIG HOZIRGI KUNDAGI DOLZARBLIGI. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, (Special Issue 2), 239-244.
5. Халмуратов, П., Кутлымуратова, Г. А., & Романова, Л. К. (2017). Биоэкологические особенности атропелладонна. При интродукции в условиях Каракалпакстана. *Вестник науки и образования*, 1(3 (27)), 30-32.
6. Кутлымуратова, Г. А. (2013). К вопросу интродукции лекарственных растений в условиях Республики Каракалпакстан. *Аспирант и соискатель*, (4), 88-90.
7. Косназаров, К. А., Кутлымуратова, Г. А., & Романова, Л. К. (2013). АНТРОПОГЕННОЕ ВЛИЯНИЕ НА ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ СОСТОЯНИЕ РАСТЕНИЙ MATRICARIA L. И ИХ ФИТОЦЕНОЗОВ В УСЛОВИЯХ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН. *SCIENCE AND WORLD*, 59.
8. SOLIYEVA, D. A. (2023). VAZIYATLI SPORT TURLARIDA KOORDINATSION QOBILIYATI VA " ONAQAY-CHAPAQAY" HARAKATLAR ASIMMETRIYA KORSATKICHLARINI ANIQLASH. *ALFRAGANUS xalqaro ilmiy jurnal*.
9. ABIDOVNA, S. D. (2021). THE SPEED OF FORMATION OF ACTION COORDINATION IN TRADITIONAL ACTIVITIES WITH GRADES 1-4 SCHOOL STUDENTS. "Замонавий спортда муаммо ва ечимлар" халқаро анжумани тушами.-Чирчиц.: 2021.-636 б.
10. ABIDOVNA, S. D. (2021). Boshlangich sinf oquvchilarida portlovchi kuch sifatini testlar yordamida baholash mezonlari. *Fan-sportga*•№ 3/2021.
11. Solieva, D. A. (2021). The ability to assess the degree of development of coordination abilities in students of grades 7-9 with the help of special tests. *Eurasian Journal of Sport Science*, 1(2), 7-12.
12. Пулатов, А. А. (2019). PRIORITY OF DEVELOPMENT OF THE STABILITY OF VESTIBULOSOMATIC REACTIONS IN THE CONTEXT OF FORECASTING THE LENGTH OF THE BODY OF CHILDREN WHEN SELECTING THEM TO PLAY BY VOLLEYBALL. *Scienceweb academic papers collection*.
13. ABIDOVNA, S. D. (2017). Maktabgacha talim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini monitoringini olib borish ahamiyati hususida. "Boshlang 'ich ta'lim va jismoniy madaniyat yo 'nalishida sifat va samaradorlikni oshirish, muammo va yechimlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiyasi.
14. ABIDOVNA, S. D. (2017). Sportda saralashga yangicha metodlar asosida yondoshishning mezonlari. "Жисмоний тарбия ва спорт: фан, таълим, инновациялар" мавзусидаги Республика илмий-амалий анжумани.
15. ABIDOVNA, S. D. (2018). Vliyanie lechebnoy gimnastiki na mishechnuyu sistemu u detey detskim serebralnim paralichom. «ЁШЛАР ОРА СИДА ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ В А ОММАВИЙ СИОРТНИЯНАДА РИВОЖЛАЙТИРИШ ИСТИКБОЛЛАРИ» МАВЗУСИДАГИ ТАЛАБА В А МАГИСТРАНТЛАРНИНГ ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАНИ.

15. Abjalova, M. Tahrir va tahlil dasturlarining lingvistik moduli. Nodirabegim"nashriyoti Toshkent-2020.
16. Axmedova, X. (2022). Turli so 'z turkumlari orasidagi omonimiyani aniqlovchi matematik modellar. Science and innovation, 1(B7), 393-400.
17. Qurbonova, M., Abjalova, M., Axmedova, N., & To'laboyeva, R. (2021). O 'zbek tilidagi o 'zlashma so 'zlarning urg 'uli lug 'ati.
- 18.
19. Розикова, Д. К., & Ихтиярова, Г. А. (2023). THE STRUCTURE OF REPRODUCTIVE LOSSES IN UZBEK WOMEN. ЖУРНАЛ РЕПРОДУКТИВНОГО ЗДОРОВЬЯ И УРО-НЕФРОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ, 4(4).
20. Amonova, M. M., & Ravshanov, K. A. (2019). Study of the electrokinetic characteristics of flocculants and dispersed contaminants of wastewater from separate production. Composites materials, (1), 103-106.
21. Амонова, М. М., Равшанов, К. А., & Амонов, М. Р. (2019). Изучение доз коагулянтов при очистки сточных вод текстильного производства. Universum: химия и биология, (6 (60)), 47-49.
22. Amonova, M. M., & Ravshanov, K. A. (2019). Study of the concentration of mineral sorbents in the purification of waste water of textile production. Compositional materials, (3), 86-90.
23. Amonova, M. M., & Ravshanov, Q. A. (2018). Study of the kinetics of sedimentation of wastewater particles. Uzbek chemical journal, (6), 20-26.
24. Rasulovna, T. I. (2022). FROM THE HISTORY OF SOCIAL MOTIVATION OF TEACHING STAFF OF PRE-SCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS DURING THE SOVIET PERIOD (Fergana Valley as an example). Thematics Journal of Social Sciences, 8(3).
25. Tishabaeva, I. R. (2021). Institutions of Preschool Education in Uzbekistan (1945-1960). International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 8(11), 227-231.
26. Husaynova, M., Xamdamova, O., Tishabaeva, I., Xatamova, Z., & Ma'rufjon, G. K. H. M. (2023). LATIFALAR MATNINING FONOSTILISTIK XUSUSIYATLARI. SCIENCE AND PEDAGOGY IN THE MODERN WORLD: PROBLEMS AND SOLUTIONS, 1(9).
27. Amridinova, D. (2019). Ўзбек маърифатпарварлари қишлоқ тараққиётида зиёлиларнинг ўрни хусусида. Scienceweb academic papers collection.
28. Amridinova, D. T. (2020). THE IDEA OF A PERFECT PERSON IN OUR SPIRITUAL HERITAGE (ON THE EXAMPLE OF THE DOCTRINE OF ACCELERATION). Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 2(7), 171-176.
29. Амридинова, Д. Т. (2019). ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННЫЕ ОРИЕНТИРЫ СТРАТЕГИЧЕСКОГО ПАРТНЕРСТВА УЗБЕКИСТАНА И ТАДЖИКИСТАНА НА СОВРЕМЕННОМ ЭТАПЕ. Вестник Таджикского национального университета, (10-1), 49-52.
30. Amridinova, D. (2022). Экономические взгляды туркестанских джадидов. Scienceweb academic papers collection.
31. Amridinova, D. (2022). Turkiston jadidlarining iqtisodiy qarashlari. Scienceweb academic papers collection.
32. Amridinova, D. (2021). ЖАДИДЧИЛИК ТАЪЛИМОТИДА КОМИЛ ИНСОН

КОНЦЕПЦИЯ СИННИНГ ФАЛСАФИЙ-ИЖТИМОЙ МОҲИЯТИ. Scienceweb academic papers collection.

33. Amridinova, D. (2019). ISMAIL GASPRINSKY AND SAID RIZO ALIZADE-OUTSTANDING EDUCATORS AND HUMANISTS. Scienceweb academic papers collection.

34. Amridinova, D. T. (2023). The Role of Digital Economy and its Impact on Online Education in Uzbekistan. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(8), 64-70.

35. Abjalova, M. A. (2021). Methods for determining homonyms in homonymy and linguistic systems. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(2), 1370-1375.

36. Abjalova, M. Tahrir va tahlil dasturlarining lingvistik moduli. Nodirabegim" nashriyoti Toshkent-2020.

37. Axmedova, X. (2022). Turli so 'z turkumlari orasidagi omonimiyani aniqlovchi matematik modellar. Science and innovation, 1(B7), 393-400.

38. Qurbonova, M., Abjalova, M., Axmedova, N., & To'laboyeva, R. (2021). O 'zbek tilidagi o 'zlashma so 'zlarning urg 'uli lug 'ati.

39. Abdurashetona, A. M., & Ismailovich, I. O. (2021, September). Methods of Tagging Part of Speech of Uzbek Language. In 2021 6th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK) (pp. 82-85). IEEE.

40. Axtam, U., & Akram, S. (2021). The Eternity of Mentor and Her Pupil. Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science, 2(8), 25-30.

INNOVATIVE
ACADEMY